



## QORA UY YOG'OCHQIRQARINING BIOLOGIYASI, EKOLOGIYASI VA ZARAR KELTIRISHI

**Ma'rupoval Akmaljon Akbarovich**

*Farg'ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi o'qituvchi*

**Omonova Sevara Akramjonovna**

*Farg'ona davlat universiteti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Maqolada Farg'ona vodiysi uzunmo'ylov qo'ng'izlarining *Hylotrupes bajulus* turi bayon etilgan. Ushbu qo'ng'izlar qoraqarag'ay, qarag'ay daraxtlari va bu daraxtlar yog'ochidan qurilgan bino va inshooatlarda uchrab jiddiy zarar keltiradi. Qo'ng'izlar trofik ixtisoslashuviga ko'ra polifaglar hisoblanadi. Farg'ona vodiyisida manzarali daraxtlar alleyalari va hiyobonlarning ko'pligi mo'ylov dor qo'ng'izlarning doimiy ravishda turli yo'nalishlarda (ommaviy, barqaror va tasodify) ko'payib borishi va tarqalishiga imkon beradi.

**Kalit so'zlar.** *Fenoplast, lichinka, qarag'ay, Termez, koleopterologik, yog'ochlik, zamburug', polifag, qayrag'och, jo'ka, Turkiya, taxta, inshooat.*

**Аннотация.** В статье описывается вид длинноусых жуков *Hylotrupes bajulus* Ферганской долины. Эти жуки наносят серьезный вред ели, сосне и зданиям и сооружениям, построенным из древесины этих деревьев. Жуки полифаги по своей трофической специализации. В Ферганской долине обилие декоративных древесных аллей и аллей позволяет усатому жуку непрерывно размножаться и распространяться в разных направлениях (массово, устойчиво и беспорядочно).

**Ключевые слова.** Фенопласт, личинка, сосна, термез, колеоптерологический, древесина, грибок, многоядный, лиственница, липа, индейка, доска, строительство.

**Abstract.** The article describes the *Hylotrupes bajulus* species of long-whiskered beetles of the Fergana Valley. These beetles cause serious damage to spruce, pine trees and buildings and structures built from the wood of these trees. Beetles are polyphagous according to their trophic specialization. In the Fergana Valley, the abundance of ornamental tree alleys and avenues allows mustached beetles to multiply and spread continuously in different directions (mass, stable and random).

**Keywords.** Phenoplast, larva, pine, Termez, coleopterological, wood, fungus, polyphagous, larch, linden, Turkey, board, construction.

### KIRISH

Mazkuz qo'ng'izlar Rossiyaning yevropa qismida, Kavkaz, Sibir; Belarussiya, Ukraina, Moldova, Kavkazortida; Yevropa, shimoliy Afrika, Suriya, Turkiya, Eron, Iroq, Xitoyda tarqalgan. Amerika, janubiy Afrika, janubiy Osiyo, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarga turli yo'llar bilan olib borilgan. Slovakiyada hasharotlar yoppasiga ko'paygani uchun karantin talablariga kuchli rioya qilinadi [3, 20, 21, 22, 23].





13-SON



O'zbekistonda Toshkent shahrida, Termez, Xiva, Andijon, Namangan va Farg'ona hududlarida aniqlangan (1-rasm).

**Material va tadqiqot uslublari.** Mazkur qo'ng'izlarni o'rghanish bo'yicha 2016-2020 yillarda olib borilgan tadqiqot materiallaridan foydalanildi [1, 5, 6, 15]. Tadqiqot ishlari davomida lichinka va imago holatidagi 62 ta hasharot namunalari yig'ilib, o'rghanildi. Imagolaridan kolleksiyalar tayyorlandi. Qora uy mo'ylovdor qo'ng'izi Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda keng tarqalgan qo'ng'iz bo'lib, ochiq urug'li o'simliklar va boshqa daraxtlarda uchrab zarar keltiradi.



1-rasm. O'zbekistonda qora uy mo'ylovdor qo'ng'izining tarqalish hududi  
△ -tarqalgan hududlari


**Olingan natijalar va ularning muhokamasi.** Qora uy yog'ochqirqar qo'ng'izi qoraqarag'ay, qarag'ay, eman, chinor, tol, kashtan kabi daraxtlar va bu daraxtlar yog'ochidan qurilgan bino va inshooatlarda uchrab jiddiy zarar keltiradi.

U asosan quruq binolarning yog'och qismlari (yog'och taxta, deraza ramkalari, shift va tom to'sinlari), simyog'ochlar va boshqa yog'ochlarga joylashib oladi. Diametri 6-7 mm atrofida oval shaklidagi yuzaga uchib chiqish teshiklarini hisobga olmaganda, ularning yog'ochda bor yoki yo'qligini tashqi belgilarga qarab bilib bo'lmaydi [11]. Uchib chiqish teshiklari oval shaklida, ularning o'lchamlari 3x6 mm dan 5x12 mm gacha bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Qora uy yog'och qirqarlari tomonidan zarar ko'rgan yog'ochlar va fenoplastlar

Qo'ng'izlarning qishki tinim davridan chiqishi may oyidan boshlanib, avgust oyining o'rtalarigacha davom etadi. Urg'ochilar qurigan daraxtlar yog'ochlarining chuqur yoriqlari va tirqishlariga tuxum 55-110 va undan ko'p qo'yadi. Yorib chiqqan lichinkalar yog'ochning tolalari bo'ylab qing'ir qiyshiq yo'laklar hosil qilib, tashqi yog'och qatlagini kemiradi. Voyaga yetgan lichinkalar yog'ochning ichki qismiga






chuqurroq kirib boradi. Lichinkalarni yog'ochning g'ijirlashidan chiqqan ovoz yoki kemirishidan hosil bo'lgan kukunga qarab aniqlash mumkin. Bir avlodning rivojlanishi 2-4 yilgacha davom etadi.

Yog'ochqirqar qo'ng'izlar orasida uy yog'ochqirqar qo'ng'izi - yog'ochda yashashga eng ko'p moslashgan turlardan biri ekanligi aniqlandi. Bu qo'ng'iz lichinkalarining hazm qilish jarayoni o'ziga xos tuzilganki, ular zararlangan yog'ochning beshdan bir qismini yeb bitiradi. Ular bilan birga yashaydigan zamburug'lar deyarli kuzatilmagan, shuning uchun lichinkalar bir vaqtning o'zida zamburug'lar zararlagan yog'ochda ham tezroq rivojlanadi. Lichinkalar odatda 2-3 yilda voyaga yetadi, Voyaga yetish vaqtini oziqasiga ham bog'liq, masalan zamburug'lar faoliyati natijasida oqsilga boyigan yog'och bilan oziqlanganda esa, ular 11-13 oy ichida voyaga yetadi. Voyaga yetgan qo'ng'izlar ba'zida yog'ochda yashab qoladi, yo'laklarda juftlashadi va o'sha joyning o'zida tuxum qo'yadi.

Bu bosqichdagi qo'ng'izlar o'rtacha 6,6-26 mm kattalikda bo'ladi (3-rasm). Oyoqlarining old toshcha qismi keng yoyilgan, mayda toshchalari sharsimon bo'lib deyarli ko'rga ko'rinxaydi. Old ko'krak o'smasi tekis va juda keng. Mo'ylovlar ingichka va qisqa bo'lib, tuklar bilan qoplanmagan, tanasining yarim uzunligiga teng bo'lib, mo'yloving 3-bo'g'imlari juda uzunligi bilan ajralib turadi. Mo'ylovlarining asos qismining orasi boshidagi ko'zlarining orasiga nisbatan katta. Boshi bo'yin qatlamlarisiz tuzilgan. Tanasi uzun, ancha keng, bir oz qavariq bo'lib, nozik oqish tuklar bilan qoplangan. Old yelkasi yon tomondan tishchalari yuk, dumaloq, 2 ta silliq, yorqin qabariqli paxmoq qoplama bilan qoplangan. Rangi kulrangdan koramtir jigarranggacha. Qanot usti och rangda bo'lib, o'rtasiga yaqin joyda noaniq naqshli 1-2 yorqin qiya bog'lamlari yoki oqish kundalang dog'lari bo'lgan nozik oq-kulrang tuklar bilan qoplangan. Oyoqlari odatda qo'ng'ir qizil rangda bo'ladi. Old boldirlari oddiy, tishchalari yo'q. Tirnoqlari uchida tishchalari bor. Urg'ochilarida uzun tuxumdon o'ziga xos. Tuxumi 2 mm uzunlikda bo'lib, uzunchok shaklga ega. [8, 11, 16, 17, 18].

Qo'ng'izlarning voyaga yetgan qo'ng'izlar rangi oq, boshi biroz to'q rangda va yuqori jag'lari esa qora-jigarrang tusda bo'ladi. Boshining ikki yonida yirik ko'zları bo'ladi. Old ko'kragi tanasining oldingi qismida bo'lib, 2 ta yirik sarg'ish dog'lari o'rtasida uzunasiga tushgan burmalari bor. Ko'krak qismida 3 juft sklerotizlanmagan oqlari mavjud bo'lib, ular 3-4 bo'g'imdan iborat va tirnoqli bo'ladi. Qornidagi qabariqlarining yuqori qismida uzunasiga va ko'ndalang joylashgan egatchalari bor. Voyaga yetgan lichinkaning uzunligi 30 mm, yo'g'onligi 6-8 mm bo'ladi. Uning chiqindisi har doim yog'och rangida bo'ladi. Bu qo'ng'izlarning yog'ochda mavjudligini yog'och rangidagi kemirilgan mayda, qo'ng'ir kukun borligiga qarab aniqlanadi. Uchib chiqish tirqishlari oval shaklda, hajmi 3x6mm va 5x12mm orasida bo'ladi. [1,2,3,4,19,24,25,26]






4-rasm. Qora uy mo'ylovdori qo'ng'izi morfologiyasi

**Xulosa.** Qora uy yog'ochqirqar qo'ng'izi qoraqarag'ay, qarag'ay, eman, chinor, tol, kashtan kabi daraxtlar hamda yog'och materiallari bino va inshooatlarning turli qismlarining jiddiy zararkunandasi hisoblanadi. Rivojlanish generatsiyasi yog'ochlik tarkibidagi oqsil miqdoriga bog'liq bo'lib 2 yildan 4 yilgacha cho`zilishi mumkin.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Akramjonovna O. S. et a. Uy parmalovchisi (*Anobium Pertinax L.*) ning biologiyasi, oziqa manbalari va zarari //Ta'lif fidoyilari. – 2022. – Т. 8. – С. 135-140.
2. Темрешёв И.И., Казенас В.Л., Есенбекова П.А. Определитель стволовых вредителей лесов Иле-Алатауского Государственного национального природного парка и сопредельных территорий Алматы: Нур-Принт, 2016. - 245 с.
3. Жугинисов Т.И., Холматов Б.Р., Лебеддова Н.И., Мирзаева Г.С., Каниязов С.Ж., Торениязова Л.Е. Вредители лесных ресурсов Узбекистана // Узбекский биол. Ж., 2019. - № 3. – С. 43-46.
4. Маърупов А.А. Шаҳар мўйловдор қўнғизи (*Coloptera,Cerambycidae*)ни ўрганишга оид маълумотлар // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2020. -№2. -Б. 102-110.
5. Маърупов А.А., Султонов Д.Ш. *Xylotrechus namanganensis* Hd (Coleoptera, Cerambycidae) қўнғизининг биологияси ва заарар келтириш хусусиятлари // Materials International scientific and practical conference "Protection and rational use of natural resources of the South Aral sea region" Nukus, June, 23-24, 2020. Part I. 138-142-б.
6. Ma'rupo A. A. Materials for studying city barbell (Coleoptera, Cerambycidae) //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 102-110.
7. Qiao Wang. Cerambycidae of the World: biology and pest management. – Boca Raton-London-New York: CRC Press, 2017. - 621 p.
8. Данилевский М.Л. Морфо-адаптивные пути эволюции личинок жуков-древесок (Coleoptera, Cerambycidae) и филогенетические связи основных групп семейства. –Москва: Наука, 1979. - 24-43 с.
9. Данилевский М.Л. Жуки-долгороги (Coleoptera, Cerambycidae) России и сопредельных стран. 2014. Часть 1. –М .: ВСК. - 522 с.





10. Данилевский М.Л. 2019. Каталог палеарктических Cerambycoidea. (Обновлено 04.09.2019). Доступно на: <http://www.cerambycidae.net/catalog.pdf> (дата обращения 21. 10.2019).

11. Akramjonovna O. S. Sakkiz nuqtali Skripun Hylotrupes Bajulus Linnaeus, 1758) qo 'ng 'iziga doir ma'lumotlar //Principal Issues Of Scientific Research And Modern Education. – 2022. – Т. 1. – №. 7.

12. Marupov A. A. Biology and harmfulness of long-beetled beetles (Coleoptera: Cerambycidae) flowing on poplars //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2021. – Т. 3. – №. 1. – С. 56-61.

13. Akramjonovna, Omonova Sevara STATE OF LADYBUG STUDY (COOCCINELLIDAE) ON THE TERRITORY OF THE FERGANA VALLEY// Scientific aspects and trends in field of scientific research // international scientific online conference 30 oktober (2022) POLAND VARSHAVA 102-105.

14. Akramjonovna, O. S. (2022). Sakkiz nuqtali Skripun Hylotrupes Bajulus Linnaeus, 1758) qo'ng'iziga doir ma'lumotlar. principal issues of scientific research and modern education, 1(7).

15. Mirzakarim o'g'li, M. M., & Axmadali o'g'li, Y. A. (2022). MATBUOT KONFERENSIYASI Darsi MISOLIDA G'O'ZA GENETIKASI VA SELEKSIYASI MAVZUSI DOIRASIDA O'QUVCHILARNI BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 510-514.

16. Мирзахалилов, М. М. Ў. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ СОСТОЯНИЕ ПРУДОВ РЫБОВОДНЫХ ХОЗЯЙСТВ И СЕЗОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИХ. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 108-113.

17. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М. Ў., Назаров, М. Ш., & Шарипова, Б. С. (2022). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА (PSEUDORASBORA PARVA) КАК ИНВАЗИВНОГО ВИДА. *Science and innovation*, 1(D2), 50-54.

18. Mukimov, M. K. A., Mirzakhalilov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. *The American Journal of Applied sciences*, 3(05), 140-047.

19. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш. (2021). КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ НЕКУЛЬТИВИРУЕМЫХ РЫБ В ВЫРОСТНЫХ ПРУДАХ РЫБХОЗА «НАМАНГАН БАЛЫК». *Academic research in educational sciences*, 2(5), 726-733.

20. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). HYDROCHEMICAL INDEXES AND PHYTOPLANKTON COMPOSITION OF DIFFERENT TYPES OF WATER BODIES IN THE FERGANA VALLEY. *O'ZBEKISTON BIOLOGIYA JURNALI*, 36.

21. Yoqubov, A. A. O. G. L., & Mirmuxsin, M. U. O. G. L. (2022). KOMPLEMENTAR IRSIYLANISHGA DOIR MASALALARNI YECHISHDA x2 METODI ASOSIDA F2 DAGI





AJRALISHNI STATISTIK USULDA TEKSHIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 270-284.

22. Kholikov, M. Y., Bekchonova, M. F., Kayumova, O. I., Yoqubov, A. A., & Usmanova, T. E. (2021). Protection of animals from the attack of blood-sucking pincers. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 211-215.
23. Мирзакулов, А. М. (2022). ФИЗИК ХОДИСАЛАРНИНГ ЧИЗИКЛИ РЕГРЕССИЯ ТАХЛИЛИ. *Science and innovation*, 1(A3), 97-102.
24. Юнусов, М. М., Ахмаджонова, С. Ш., & Содикова, Ш. С. (2022). ЗАРАРКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ОЛТИНКЎЗ (CHRYSOPIDAE) ОИЛАСИГА МАНСУБ ТУРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 378-384.
25. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). FARG 'ONA VODIYSINING AYRIM DENDROFIL SHIRALARI (HOMOPTERA, APHIDOIDEA) BIOEKOLOGIYASI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1289-1299.
26. Мустафакулов, Х., Юлдашева, Ш., Юнусов, М., & Шерматов, А. (2013). Роль сорной растительности при формировании полезной энтомофауны агробиогеоценозов Ферганской долины. *Аграрный вестник Урала*, (3 (109)), 12.

